

Uzbekistan Airways uchuvchilarni saralash uchun hujjatlar qabul qilishini e'lon qiladi

2021 4 Noyabr

2021-yilning 1-noyabridan boshlab «Uzbekistan Airways» AJ aviatsiya texnikasiga qayta tayyorlash maqsadida nomzodlarni saralash uchun hujjatlar qabul qilinishini e'lon qiladi. Saralash tanlovida ishtirok etish uchun arizalarni qabul qilish 2021-yilning 1-noyabridan boshlab 2021-yilning 31-dekabriga qadar fuqaro aviatsiyasi uchuvchilarini tayyorlash bilim yurtlari bitiruvchilari hamda fuqaro aviatsiyasi uchuvchisi guvohnomasi sohiblari o'rtaida amalga oshiriladi.

Fuqaro aviatsiyasi uchuvchilarni tayyorlash bilim yurtlari bitiruvchilari orasidagi nomzodlarga qo'yiladigan talablar:

- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega 21-yoshdan 35-yoshgacha bo'lgan fuqarolar;
- Amaldagi pasport yoki shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma (ID Card), shuningdek xalqaro pasportning mavjudligi;
- Uchuvchilar bilim yurtini tamomlaganligi to'g'risidagi diplom (sertifikat) hamda tayyorgarlik hajmi va bir yoki ikki dvigatelli havo kemalarida 150 soatdan kam bo'lmagan parvoz soatlarini tasdiqlovchi hujjat;
- Uchuvchilar bilim yurtini tamomlagandan keyin 12 oydan ortiq bo'lmagan tanaffus;
- IR (Instrument rating) dasturi bo'yicha o'quv kursini tugatganligi to'g'risidagi sertifikat;
- Parvoz kitobchasi yoki uning analogi;
- ICAO shkalasi bo'yicha ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi xorijiy davlat yoki O'zbekiston Respublikasi Aviatsiya ma'muriyati tomonidan berilgan amaldagi hujjat;
- FA uchuvchisi (CPL) guvohnomasi;
- O'zbekistonda tan olingen oliy ma'lumotni tasdiqlovchi hujjat (nostrifikatsiya), agar mavjud bo'lsa;

- Erkak nomzodlar uchun harbiy xizmatga yaroqlilik belgisi bilan O'zbekiston Respublikasi harbiy guvohnomasining mavjudligi.

Fuqaro aviatsiyasi uchuvchisi guvohnomasi sohiblari orasidan nomzodlarga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga ega 50 yoshdan oshmagan shaxslar;
- Amaldagi pasport yoki shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma (ID Card), shuningdek xalqaro pasportning mavjudligi;
- HKK (havo kemasi komandiri) yoki ikkinchi uchuvchi sifatida 500 soatdan kam bo'limgan parvoz vaqt;
- Xorijiy davlat yoki O'zbekiston Respublikasi Aviatsiya ma'muriyati tomonidan berilgan FA uchuvchisi guvohnomasi (CPL, ATPL);
- Ariza berilgan sanagacha 12 oydan kam bo'limgan muddatdagi parvoz ishidagi tanaffus.
- FA uchuvchilar bilim yurtini tamomlaganligi to'g'risidagi hujjat;
- ICAO shkalasi bo'yicha ingliz tilini bilish darajasini tasdiqlovchi xorijiy davlat yoki O'zbekiston Respublikasi Aviatsiya ma'muriyati tomonidan berilgan amaldagi hujjat;
- Mehnat daftarchasi yoki so'nggi 5 yil davomida faoliyat yuritgan va egallab turgan lavozimi to'g'risida rasmiy ma'lumot;
- «Uzbekistan Airways» AJ tomonidan ekspluatatsiya qilinayotgan havo kemasida qayta tayyorgarlikdan o'tganligi to'g'risidagi hujjat (agar nomzodda shunday hujjat bo'lsa);
- «Uzbekistan Airways» aviakompaniyasida uchuvchi sifatida ishlashga qanday sabab asosiy turki bo'lganligi to'g'risida o'zbek, rus yoki ingliz tillarida motivatsion xati;
- O'zbek, rus yoki ingliz tillarida tavsiyanoma.

Batafsil: <https://aviatraining.uz/informacija-dlya-interesujushhihsja-vozmozhnostju-trudoustroystva-v-aviakompaniju-uzbekistan-airways-pilotom-vozdushnogo-sudna/>

Telegram: t.me/uzbekistanairways